




*Sirdaryo viloyati Oqoltin
tumani*
*2- umumiy o`rta ta`lim
maktabining ona tili va
adabiyot fani o`qituvchisi*
*Uraqova Sadoqatning
ababiyot fanidan*
bir soatlik dars ishlanmasi.



2016-yil

Agar biz O`zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi , uning qadimiylari tarixi va yorug` kelajagini ulug`lamoqchi , uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo`lsak , avvalambor buyuk yozuvchilarni , buyuk shoirlarni , buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug` adib Cho`lpon aytganidek: “ Adabiyot yashasa – millat yashaydi ”

Islom Karimov

Adabiyot 8- sinf

Darsning texnologik xaritasi.

Mavzu	“Chinor” romani tahlili
Maqsad va vazifalar	<p>Maqsad:</p> <ul style="list-style-type: none"> -mavzu mazmun- mohiyatiga oid bilim berish, tahlil qilishga o`rgatish -hamjihatlik, o`rtoqlik hissini, milliy qadriyatlar tuyg`usini shakllantirish; -mustaqil fikrlash, o`z fikrlarini himoya qilish, bilim olish ehtiyojlarini rivojlantirish. <p>Vazifalar:</p> <p>O`quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg`otish, hamkorlikda, hamjihatlikda ishlash malakasini shakllantirish, babs-munozara sharoitini yaratish, insho yozishga tayyorlash, munosib reja tuzishga yo`naltirish.</p>
O`quv jarayonining mazmuni	“Chinor”romani va qahramonlarga tavsif berish hamda ularni tahlil qilish
Dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p>Usul: “SWOT-universal tahlil”, “Klaster”, “Venn diagrammasi”, “Sinkvyen”, metodlari”Muammoli vaziyat” jadvali “O`rgamchik to`ri”, “Azim chinor” ta’limiy o`yinlar Shakl: Guruhlarda, jamoada ishlash</p> <p>Dars turi: Yangi mavzu bilan tanishtirish</p> <p>Vosita: Darslik, mavzuga oid ko`rgazmalar: buklet, rasmlar, ”Venn diagrammasi” va ”Azim chinor”ga oid ko`rgazmalar, slaydlar</p> <p>Baholash: 5 ballik tizim asosida</p>
Kutilayotgan natijalar	O`quvchi: Mustaqil fikrlash, o`z fikrini himoya qilish, bahslashish madaniyati, asar va uning qahramonlarini tahlil qilish, o`zgalar fikrini hurmat qilish malakalarini shakllantirish.

	O`qituvchi: o`quvchilar ruhiyati, qiziqishi, imkoniyatini o`rganadi, jarayonni, o`quv topshiriqlarni takomillashtiradi.
Kelgusi rejalar	Innavatsion pedagogik texnologiyalarni o`rganish, tajriba almashish, ta`lim –tarbiya jarayonini takomillashtirish.

Darsning blok sxemasi

Nº	Darsning bosqichlari	Vaqti
1	Darsning tashkiliy qismi: salomlashish, davomatni aniqlash, o`quvchilarni guruhlarga bo`lish	5 daqiqa
2	O`quvchilarni faollashtirish, o`tgan mavzuni mustahkamlash: “O`rgamchik to`ri”, ”Venn diagrammasi” metodi	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni: Mavzu bayoni, “Klaster”, ”SWOT”, ”Muammoli vaziyat” jadvali, sahna ko`rinishi	20 daqiqa
4	Mustahkamlash: “Azim chinor” o`yini “Sinkveyn”metodi	10 daqiqa
5	Darsni yakunlash: G`olib bo`lgan guruhni aniqlash, o`quvchilarni baholash	2 daqiqa
6	Uyga vazifa:	3 daqiqa

Darsning borishi:

- 1.Tashkiliy qism:
Salomlashish, davomatni aniqlash, dars maqsadi bilan tanishtirish, guruhlarni shakllantirish.

Aziz o`quvchilar, bugungi darsimizning

shiori: Odam deb o`lgan odam –doim tirik
O`zini deb yashagan-o`lik.

Biz o`tgan darsimizda Asqad Muxtorning “Chinor” romanini o`rgangan edik. Hozir men o`tgan mavzuga oid bilimlaringizni mustahkamlashdan oldin qo`limga bir soat oldin kelib tushgan mana bu arizani sizlarga o`qib bermoqchiman. Marhamat eshititing.

Sirdaryo viloyati
Oqoltin tumani
Ichki ishlar bo`limiga
8-sinf adabiyot darsligi
tomonidan

Ariza

Yozaman ushbu arizani shu haqidakim, mening “Chinor” romanidan parcha berilgan varaqlarim yo`qolib qoldi. Shu varaqlarimni topib berishingizni so`rayman. Gumanim 8-sinf o`quvchilaridan.

Ana ko`rdingizmi, aziz o`quvchilar, adabiyot darsligimizning varaqlari yo`qolib qolibdi, buni esa sizlardan guman qilyapti. Shuning uchun biz adabiyot darsligining varaqlarini topib berishga yordamlashishimiz kerak. Buning uchun biz sinf o`quvchilarini uch guruhga bo`lib olamiz.

**1-guruh
Advokat**

**2-guruh
Detektiv**

**3-guruh
Izquvar**

Bu guruhlar o`zining epchilligi, donoligi, izlanuvchanligi bilan “Chinor” romaniga oid savol hamda topshiriqlarni a`lo darajada bajarib, adabiyot darsligining varaqlarini tiklashga yordam berishi lozim.

Qaysi guruh bu savol va topshiriqlarni a`lo darajada bajarib, g`olib bo`lsa, o`sha guruh adabiyot darsligining varaqlarini topib bergen hisoblanadi.

Qani qaysi guruhimiz g`olib bo`lar ekan.

2. Mustahkamlash:

1-topshiriq

“O`rgamchak to`ri” o`yini orqali guruhlar savol-javob qilinadi.


Savol:

- 1.”Chinor” romani qachon yozilgan?
- 2.”Chinor “ romanining boshqa romanlardan farqi?
- 3.Akbarali nima uchun bir umr vijdon azobida qoldi?
- 4.Ochil buva Akbaralini qanday ataydi?
- 5.Akbaralining hayoti qanday tugaydi?
- 6.Azim kim?

O`quvchilarning javobiga qarab, guruhlarni ball kartochkalari asosida ballab boraman 2-topshiriq

“Venn diagrammasi” asosida har bir guruhdan bittadan o`quvchi chiqib, Akbarali va Bektemirning o`xhash va farqli tomonlarini ajratib berishadi

Venn diagrammasi



3.Yangi mavzu bayoni:




“Chinor” romanining boshida butun yurtga tarqab ketgan uzoq-yaqin qarindoshlaridan xabar olgani otlangan 93 yoshli Ochil bobo safarga chiqadi. Mana shu o'ta qiziqarli va ibratli safar paytida peshonalaridagi ajinlar singari


bir-biriga ulanib ketgan insoniy taqdirlar haqidagi goh shirin, goh achchiq hikoyalarga oshno tutunasiz.

Bu taqdirlar bir-biri bilan Ochil bobo orqali bog`lanib, yagona shajaranı –azim Chinorni vujudga keltiradi.

Biz o`tgan darsda Ochil bobo Chinor shajarasida unib qolgan ana shunday “mo`rt bir barg”- Akbarali ismli konchi bir yigit taqdiridan hikoya qiluvchi mungli qissani birgalikda o`rgandik, o`qidik. Bugun esa mana shu hikoya va uning qahramonlarini tahlil qilamiz.



“Chinor“ romanidagi fojiali taqdir egalaridan biri Akbarali





Agar yarim kechasi uning uyiga otasining do'sti Bektemir kirib kelmaganda edi , balki bu sokin hayot yana uzoq davom etgan ham bo'lar edi... Taqdir Akbaralini bir necha daqiqalik sinovga soldi va ...shavqatsizlarcha sindirdi.

O'sha mash'um daqiqada Akbaralining ichida ikki his bir-biri bilan ayovsiz olishdi.



Agar fursat salgina ko`proq bo`lganda, ozgina o`ylab, keyin bir qarorga kelishga imkon bo`lganda edi...

Afsuski, bu gal ham alloma Gafur G`ulom aytgan haqiqat isbotlandi.

G`uncha ochulgunch o`tgan fursatni
Kapalak umriga qiyos etgulik,
Ba`zida bir nafas olgulik muddat
Ming yulduz so`nishi uchun yetgulik...

Ming yulduzni so`ndirishga qudrati yetgan hal qiluvchi lahzalar Akbarali yulduzini ham so`ndirdi. Endi uning ko`rgan kuni kun emas. Azob-uqubat, vijdon qiyognog`i, qalb so`rog`i...

Shunday insonning umriga ...Akbarali zomin bo`ldi! Yo`q,u Bektemirni bo`g`ib, osib, urib o`ldirmadi. Hatto haqorat ham qilgani yo`q.Bor-yo`g`i hech narsa qilmadi, xolos...

Unga yigitlik umrida bir marotaba inson bolasi, HAYOT atalmish ne'mat najot qo`llarini cho`zgan edi.Bir marotaba undan o`zining ham INSON EKANLIGINI ISBOTLASHni so`ragan edi. Akbarali mana shu hayotning qo`llarini tutmadi,yordamga muhtoj insonning yoniga bormadi!..

Bu yog`i- o`zingizga ma'lum- azob, azob, azob...

Hozir guruuhlar “SWOT-universal tahlil” asosida Akbarali obrazini tahlil qilishadi

S(KUCH) Yosh Baquvvat Kuchli	W(ZAIFLIK) Qo`rqaq Xudbin Jur'atsiz Qat'iyatsiz Irodasiz
O(IMKONIYAT) Bektemirga yordam berish; Shodasoyliklarga bo`lgan voqeani aytib berish	(XAVF-XATAR) O`lim Uyat Or-nomusining toptalishi

Endi birgalikda “Muammoli vaziyatlar”jadvalini tuzamiz

Muammoli vaziyat	Muamimoli vaziyatning kelib chiqishi	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
Azim Chinorning “Mo’rt bargi”-Akbarali” qotil”	Shijoatning yetishmaganligi, ojizligi, qo’rroqligi, qat’iyatsizligi tufayli hal qiluvchi lahzalarda nafaqat Bektemirning, balki o’zining ham yulduzi so’nishiga sababchi bo’ldi Yigitlik umrida hayot bir marta inson ekanligini isbotlashni so’ragan edi. Akbarali mana shu hayotning qo’llarini tutmadи.	Inson yoshlidan hayot ilmlarini o’rganib,o’zida mardlik, botirlik, qo’rmaslik kabi xislatlarni shakllantirib borish kerak. Jismoni y va ruhiy komillik bizning baxtimiz

Endi esa o’quvchilar “Chinor” romanidan sahna ko’rinishi qo’yib berishadi.

4.Mustahkamlash:

Yangi mavzuni mustahkamlashda “Azim Chinordan “ foydalanamiz



1. Bektemirning orzulari nima edi?

2. Hamma ham Akbaralidek ruhiy holatga tushishi mumkinmi?
3. Ochil bobo Akbaralini nega “mo`rt barg “deydi?
4. Akbarali o`z joniga qassd qilib to`g`ri yo`l tutdimi?
5. Akbarali sizda qanday taassurot qoldirdi?
6. Akbaralini Bektemir nega qora tortib keladi?

Guruhlarga ” Sinkveyn” metodi orqali



Obrazlariga xos xususiyatlarni tahlil qilishni topshiriq qilib beraman.

“SINKVEYN”metodi

1. _____ (1ta so`z-ot)
2. _____ (2ta so`z-sifat)
3. _____ (3 ta so`z-fe'l)
4. _____ (jumla)
5. _____ (1ta so`z birinchi so`zning ma'nodoshi)

Guruhlarga topshiriqlarni bajarishga qarab ball qo'yaman.

5. Darsni yakunlash:

Mana aziz o'quvchilar, endi guruhlar to'plagan ballarni hisoblab, qaysi guruh “Adabiyot” darsligining varaqlarini topib bergenligini aniqlaymiz. O'quvchilarning, ya`ni guruhlarning to'plagan ballari hisoblanib, g`olib guruh e'lon qilinadi. Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi.



6.Uya vazifa:

1. Asarni to`liq o`qib chiqish
2. Akbarali obrazini tahlil qilib o`rganish.
3. “Azim chinorning bir mo`rt bargi” mavzusidagi inshoga tayyorgarlik ko`rish, murakkab shaklda reja tuzish, epigraf topish

XULOSA

Darsni tashkil etishda yangi metod, usul va elektron taqdimotlardan foydalandim.

Dars davomida sinf o`quvchilarini o`zgacha usul bilan “**Advokat**”, “**Detektiv**” va ”**Izquvar**” kabi guruhlarga bo`lib, o`quvchilarni faollikka undadim.

Elektron taqdimotlardan foydalanish o`quvchilarda mashg`ulotlarga qiziqish uyg`otish bilan bir qatorda, tez va aniq fikrlash, muammoli vaziyatlardan chiqa olish malakasini, faollik, topqirlik, izlanuvchan, zukkolik, fazilatlarini shakllantiradi.

Darsimda ”**SWOT**”, ”**Sinkveyn**”, ”**Klaster**”, ”**Venn diagrammasi**” metodlaridan, ”**O`rgamchak to`ri**”, ”**Azim Chinor**” kabi o`yinlar hamda ”**Muammoli vaziyat**” jadvalidan foydalandim. Bunday o`yin va metodlar o`quvchilarni mustaqil va dadil fikrlashga, hozirgavoblikka, aytilgan fikrning to`g`ri yoki noto`g`riliqi haqida o`ylashga va o`z fikrini mantiqli, izchil isbotlashga o`rgatadi.

Demak, darslarda axborot va ta`lim texnologiyalaridan o`rinli foydalanish nafaqat ta`lim samaradorligini oshiradi, balki o`quvchi va o`qituvchi o`rtasida teng, do`stona munosabat qaror topishda sharoit yaratadi. O`quvchi darsda o`zini erkin his qiladi, mashg`ulotlarga qiziqish, so`z san`ati bilan shug`ullanishga, ijodga rag`bati ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.I.Karimov Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch Toshkent “Ma`naviyat”2008-yil.
- 2.O.Sultonmurod ,S. Ahmedov,R.Qo`chqorov 8-sinf adabiyot darsligi G`ulom nomidagi nashriyot.Toshkent 2014-yil.
- 3.M.Shayxzoda “Chinor” romani “Yangi asr avlod” Toshkent 2011-yil.
- 4.N.Karimov,S.Mamajonov,B.Nazarov,U.Normatov,O.Sharofiddinov XX asr o`zbek adabiyoti tarixi Toshkent “O`qituvchi” 1999-yil.